

**AN'ANAVIY IQTISODIYOT VA YASHIL IQTISODIYOTNING FARQLI
JIHATLARI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL****Karimova Sayyora Abdurashid qizi***Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti**Tayanch doktorant*sayyora9093@gmail.com

+998911639093

ORCID kodi:0009-0008-1950-1565

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 27.03.2026**Revised: 28.03.2026**Accepted: 29.03.2026***KALIT SO'ZLAR:***an'anaviy iqtisodiyot,
yashil iqtisodiyot,
barqaror rivojlanish,
ekologik siyosat, resurs
samaradorligi, iqlim
o'zgarishi*

Mazkur maqolada an'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot modellarining nazariy asoslari, ularning o'zaro farqli jihatlari hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy o'sish, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlik mezonlari asosida ikki model qiyosiy o'rganildi. Xalqaro tashkilotlar (UNEP, OECD, World Bank), ekologik iqtisodiyot nazariyasi va barqaror rivojlanish konsepsiyasiga oid ilmiy manbalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot modeli uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkonini beradi.

I. KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiy rivojlanish jarayoni ekologik cheklovlar bilan to'qnash kelmoqda. Sanoatlashtirish va intensiv ishlab chiqarish natijasida tabiiy resurslarning tez sur'atlarda kamayishi, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikning qisqarishi

kuzatilmoqda. Bu jarayonlar an'anaviy iqtisodiy modelning uzoq muddatli barqarorligi masalasini kun tartibiga olib chiqdi.¹²⁸

An'anaviy iqtisodiyot modeli asosan yalpi ichki mahsulot o'sishini ustuvor maqsad sifatida belgilaydi va ishlab chiqarish hajmining kengayishini iqtisodiy muvaffaqiyat mezonini sifatida ko'radi. Ushbu modelda tabiiy resurslar ko'pincha cheklanmagan omil sifatida qoraladi, ekologik xarajatlar esa tashqi effekt sifatida baholanadi.¹²⁹

Yashil iqtisodiyot tushunchasi esa iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashni nazarda tutadi. UNEP ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshiradigan va ijtimoiy tenglikni ta'minlaydigan, shu bilan birga ekologik xavflar va resurs tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir.¹³⁰

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1987-yildagi Brundtland hisobotida shakllangan bo'lib, hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmagan holda qondirish tamoyiliga asoslanadi. Yashil iqtisodiyot aynan shu konsepsiyaning iqtisodiy amaliyotdagi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.¹³¹

Iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini bo'yicha Stern tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarga e'tiborsizlik global YAIMning sezilarli yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois iqtisodiy siyosatda ekologik omillarni integratsiya qilish zarurati kuchaymoqda.¹³²

OECD tadqiqotlari yashil o'sish modeli innovatsiyalarni rag'batlantirishi, yangi ish o'rinlari yaratishi va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa yashil iqtisodiyot modelini faqat ekologik emas, balki iqtisodiy strategiya sifatida ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi an'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot modellarining farqli jihatlarini nazariy va amaliy asosda tahlil qilish hamda ularning barqaror rivojlanishdagi o'rnini aniqlashdan iborat.¹³³

II. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish mavzusi makroiqtisodiy darajada ko'p talqin qilingan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi dastlabki izlanishlar T. Mal'tus va D. Rikardolarning ilmiy izlanishlarida aks etgan. Shuningdek, R. Solouva V. Leontevning

¹²⁸ Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.

¹²⁹ Jackson, T. (2011). *Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet*. Routledge.

¹³⁰ UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. United Nations Environment Programme.

¹³¹ Stiglitz, J., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2010). *Mismeasuring Our Lives: Why GDP Doesn't Add Up*. The New Press.

¹³² Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.

¹³³ OECD. (2015). *Green Growth Indicators 2015*. OECD Publishing.

ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish g'oyalari ilgari surilib, matematik va iqtisodiy modellashirish faol qo'llanildi.¹³⁴

Ingiliz tadqiqotchisi E.F. Shumaxer o'z tadqiqotlarida talabni qondirish va uni o'stirishga asoslangan iqtisodiy tizimni qoralaydi va talabning haddan tashqari o'sishi yangi iqtisodiy inqirozni vujudga keltirishini takidlaydi. E.F. Shumaxer “Istemol-bu maqsad emas, minimal istemol qilish orqali maksimal yaxshi turmush tarziga erishishning vositasi bo'lishi kerak “-degan g'oyani ilgari surib, “Taraqqiyot – atrof-muhit va suvni ifloslantirishga hamda o'rmonlarni yo'q qilishga olib keladi”-degan xulosaga keladi.¹³⁵

Shuningdek, o'zbek iqtisodchi olimlaridan Nosirov E.I. yuqorida qayd etilgan fikrlarni asoslagan holda, dunyo miqyosida cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni tejab ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishning oldini olish va tabiiy biologik jarayonlar buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida global miqyosda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish zarurati yuzaga kelganligini qayd etadilar.¹³⁶

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot an'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot modellarini taqqoslash uchun **komparativ tahlil usulidan** foydalangan. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Nazariy asoslarni o'rganish: An'anaviy va yashil iqtisodiyotga oid ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (UNEP, OECD, World Bank) hisobotlari va barqaror rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilindi.

Taqqoslash mezonlarini belgilash: Taqqoslash uchun quyidagi indikatorlar tanlandi:

- Iqtisodiy o'sish va YAIM ko'rsatkichlari
- Resurslardan foydalanish samaradorligi
- Energiya manbalari va ularning ekologik ta'siri
- Ijtimoiy inklyuzivlik va barqaror ish o'rinlari
- Ekologik xavflar va chiqindilarni kamaytirish darajasi

Ma'lumot manbalari: Statistik va ilmiy ma'lumotlar OECD, World Bank, UNEP, IPCC va Stern Review kabi rasmiy va tekshiriladigan manbalardan olindi. Shu bilan birga akademik maqolalar va kitoblar (Stiglitz, Daly, Jackson) tahlil qilindi.¹³⁷

Tahlil usullari:

¹³⁴ Архипова В.В. “Зелёные” финансы как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал ВШЭ. 2017 Т.21.,№2, с. 314

¹³⁵ Э.Ф. Шумахер. Маленькое – это прекрасно : изучение экономики, как будто люди имеют значение*(новые переводы) Журнал Экономическая социология Т.13 №1 Январь. 2012. www.ecsoc.hse.ru

¹³⁶ ««Yashil» loyihalarni moliyalashtirish: nazariya, metodologiya va amaliyot». T.: «Makon Ziya Nuri», 2025. -200 b.

¹³⁷ Daly, H. E., & Farley, J. (2011). *Ecological Economics: Principles and Applications* (2nd ed.). Island Press.

Sifat va miqdoriy tahlil: Har bir iqtisodiy modelning ijtimoiy va ekologik samaradorligi tahlil qilindi.

Komparativ metod: Har bir indikator bo'yicha ikki modelning afzalliklari va kamchiliklari solishtirildi.

Cheklovlar: Tadqiqotda mavjud bo'lgan statistik ma'lumotlarning cheklanganligi, ba'zi mamlakatlarda ekologik monitoringning to'liq emasligi va yashil iqtisodiyotning mamlakatlar bo'yicha turlicha shakllanganligi hisobga olindi.¹³⁸ Ushbu metodologiya yordamida maqolada keltirilgan barcha natijalar ilmiy asosga ega va rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlarga tayangan. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Mazkur bo'limda tadqiqotning metodologik asoslari belgilandi. Nazariy manbalarni tahlil qilish, indikatorlarni aniqlash va komparativ tahlil usuli asosida an'anaviy va yashil iqtisodiyot modellarini solishtirish imkoniyati yaratildi. Bu esa natijalar bo'limida ishonchli va ilmiy asosli xulosalar berishga imkon beradi.

IV. TAHLIL VA NATIJALAR

4.1 Iqtisodiy o'sish va YAIM ko'rsatkichlari

An'anaviy iqtisodiyot modellari odatda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishini asosiy mezon sifatida qabul qiladi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish va investitsiyalar hajmi iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada oshiradi. OECD statistik ma'lumotlariga ko'ra, an'anaviy iqtisodiyot amaliyoti bilan boshqariladigan mamlakatlarda YAIM o'sishi yillik 4–6% ni tashkil qiladi. Shunga qaramay, yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy o'sishni barqaror va uzoq muddatli nuqtai nazardan baholaydi. UNEP hisobotida ta'kidlanishicha, yashil investitsiyalar va energiya samaradorligini oshirish orqali YAIM o'sishi dastlabki yillarda an'anaviy modeldan pastroq bo'lishi mumkin, lekin 10–15 yil davomida iqtisodiy barqarorlik va kamroq makroiqtisodiy tebranishlar bilan ajralib turadi.

Natijalarni umumlashtirsak shuni ko'rsatadiki, an'anaviy iqtisodiyot tez o'sish imkonini beradi, ammo uzoq muddatli barqarorlikda yashil iqtisodiyot afzalroqdir.¹³⁹

4.2 Resurslardan foydalanish samaradorligi

An'anaviy iqtisodiyotda tabiiy resurslar ko'pincha cheklanmagan omil sifatida ishlatiladi. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, neft, gaz va ko'mirga asoslangan ishlab chiqarish mamlakatlarda tezkor iqtisodiy o'sishga olib keladi, lekin resurslarning tez tugashi va atrof-

¹³⁸ World Bank. (2012). *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. World Bank.

¹³⁹ OECD. (2015). *Green Growth Indicators 2015*. OECD Publishing.

muhitga zarar xavfini oshiradi. Yashil iqtisodiyotda resurslarni tejash va qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish ustunlik qiladi. Masalan, shamol va quyosh energetikasi yordamida ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligi oshiriladi va chiqindilar kamayadi. IPCC hisobotida qayd etilishicha, yashil texnologiyalarni qo'llash orqali energiya sarfi 20–30% ga kamayishi mumkin.¹⁴⁰

Xulosam shundan iboratki, Yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi, atrof-muhit va kelajak avlod manfaatlarini himoya qiladi.

4.3 Energiya manbalari va ekologik ta'sir

An'anaviy iqtisodiyot energiya manbalari sifatida asosan fosil yoqilg'ilar (neft, gaz, ko'mir) ga tayanadi. Bu esa atmosferaga karbonat angidrid miqdorining ortishiga va iqlim o'zgarishining tezlashishiga olib keladi. Stern Review ma'lumotlariga ko'ra, global iqtisodiyotning 60% dan ortig'i hali ham fosil yoqilg'ilarga bog'liq. Yashil iqtisodiyot esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, jumladan quyosh, shamol, suv va biomassa energiyasini afzal ko'radi. Bu model karbon chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi va ekologik xavfni pasaytiradi. OECD tadqiqotida ta'kidlanishicha, yashil energiya texnologiyalarini keng joriy qilish 2030 yilga kelib karbonat chiqindilarini 40–50% ga kamaytirishga imkon beradi

Qisqa qilib aytganda, an'anaviy iqtisodiyotning ekologik xarajati yuqori bo'lsa, yashil iqtisodiyot uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

4.4 Ijtimoiy inklyuzivlik va barqaror ish o'rinlari

An'anaviy iqtisodiyotda asosiy e'tibor ishlab chiqarish hajmini oshirish va foyda ko'rishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy tenglik masalalari ko'pincha ikkinchi darajali bo'ladi. Masalan, sanoatlashtirilgan mamlakatlarda ishchi kuchining ayrim qatlamlari yetarli darajada himoyalangan¹⁴¹

Yashil iqtisodiyot esa ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashga urg'u beradi. UNEP va World Bank tadqiqotlariga ko'ra, yashil investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratadi va energiya samaradorligi loyihalari orqali kambag'allikni kamaytiradi. Masalan, shamol energetikasi va qayta ishlash sektorlarida ish o'rinlari an'anaviy sanoatga nisbatan 2–3 baravar ko'proq barqarorlik bilan yaratiladi.

¹⁴⁰ IPCC. (2014). *Climate Change 2014: Mitigation of Climate Change*. Cambridge University Press.

¹⁴¹ Stiglitz, J., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2010). *Mismeasuring Our Lives: Why GDP Doesn't Add Up*. The New Press.

Xulosam shundan iboratki, yashil iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikni oshirish va ish o'rinlarini barqaror yaratish imkoniyatini beradi, bu esa iqtisodiy va ekologik foydani uyg'unlashtiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

An'anaviy iqtisodiyot – tezkor iqtisodiy o'sish va YAIMni oshirishga qaratilgan, ammo ekologik va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan riskli.

Yashil iqtisodiyot – uzoq muddatli barqarorlik, resurslarni tejash, ekologik xavflarni kamaytirish va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha yashil iqtisodiyot modeli global barqaror rivojlanish maqsadlariga (Sustainable Development Goals, SDG) mos keladi. Tahlil va muhokama natijalari an'anaviy va yashil iqtisodiyot modellarining aniq farqlarini ko'rsatdi. Yashil iqtisodiyot uzoq muddatli barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda an'anaviy modelga nisbatan ustun ekanligi ilmiy dalillar bilan tasdiqlandi.¹⁴²

№	MEZONI	AN'ANAVIY IQTISODIYOT	YASHIL IQTISODIYOT
1	Asosiy maqsad	Foyda va tez o'sish	Barqaror rivojlanish
2	Resurslardan foydalanish	Ko'p va nazoratsiz	Tejamkor va oqilona
3	Energiya manbalari	Neft, gaz, ko'mir	Quyosh, shamol, suv
4	Ekologik ta'sir	Atrof-muhitga zarar	Ekologik muhofaza
5	Kelajak avlod manfaatlari	Kam hisobga olinadi	Ustuvor ahamiyatga ega

1-rasm. An'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyotning farqli jihatlarini.¹⁴³

V. XULOSA

Mazkur tadqiqot an'anaviy iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot modellarining farqli jihatlarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. **Iqtisodiy o'sish:** An'anaviy iqtisodiyot qisqa muddatda YAIMni tez oshirish imkonini beradi, lekin uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash qiyin. Yashil iqtisodiyot esa dastlabki o'sish sur'ati past bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlaydi.

¹⁴² UN. (2015). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations.

¹⁴³ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan

2. **Resurslardan foydalanish va energiya manbalari:** An'anaviy model resurslarni intensiv ishlatadi va fosil yoqilg'ilarga bog'liq bo'lsa, yashil iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslanadi va chiqindilarni kamaytiradi.

3. **Ekologik barqarorlik:** Yashil iqtisodiyot karbon chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish va atrof-muhitni saqlash imkonini beradi. An'anaviy model esa ekologik xavf va iqlim o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

4. **Ijtimoiy inklyuzivlik:** Yashil iqtisodiyot yangi ish o'rinlari yaratadi va ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi. An'anaviy modelda esa ijtimoiy barqarorlik ko'pincha ikkinchi darajali masala hisoblanadi.

5. **Barqaror rivojlanish bilan bog'liqlik:** Yashil iqtisodiyot modelining barcha ko'rsatkichlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) mos keladi, bu esa uning global iqtisodiy siyosatda muhimligini oshiradi.

Umumiy tahlil natijasida tadqiqot shuni ko'rsatdiki, an'anaviy iqtisodiyot qisqa muddatli iqtisodiy natijalarni beradi, ammo ekologik va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan xavfli. Yashil iqtisodiyot esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish, resurslar samaradorligi, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy inklyuzivlikni birlashtiradi. Shu sababli kelajak iqtisodiy strategiyasida yashil iqtisodiyot tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.

2.OECD. (2015). Green Growth Indicators 2015. OECD Publishing.

3.World Bank. (2012). Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. World Bank.

4.IPCC. (2014). Climate Change 2014: Mitigation of Climate Change. Cambridge University Press.

5.Stern, N. (2007). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.

6.Daly, H. E., & Farley, J. (2011). Ecological Economics: Principles and Applications (2nd ed.). Island Press.

7.Jackson, T. (2011). Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet. Routledge.

8.Stiglitz, J., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2010). Mismeasuring Our Lives: Why GDP Doesn't Add Up. The New Press.

9.UN. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.

10.OECD. (2017). Green Growth and Sustainable Development Forum. OECD Publishing.,

11.OECD. (2017). Green Growth and Sustainable Development Forum. OECD Publishing.

12.UNEP. (2019). Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy Planet, Healthy People. Cambridge University Press.

13.Barbier, E. B. (2010). Green Economy and Sustainable Development. UNEP.

14.««Yashil» loyihalarni moliyalashtirish: nazariya, metodologiya va amaliyot». T.: «Makon Ziyonuri», 2025. -200 b.

15.Э.Ф. Шумахер. Журнал Экономическая социология Т.13 №1 Январь. 2012. www.эсsoc.hse.ru

16.Архипова В.В. “Зелёные” финансы как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал ВШЭ. 2017 Т.21.,№2, с. 314.